



IQTISODIY BARQARORLIK – MILLIY TARAQQIYOT KAFOLATI

Xamrayev Sarvar Choriyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada iqtisodiyotning jamiyat hayotidagi o‘rni va uning taraqqiyotdagi asosiy omil sifatidagi ahamiyati tahlil qilinib, unda ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol jarayonlari kabi asosiy prinsiplarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning ijtimoiy farovonlikni ta‘minlashdagi roli ochib berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar o‘rganilib, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mamlakatning barqaror rivojlanishi va milliy mustaqillikni mustahkamlashda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, ijtimoiy farovonlik, taraqqiyot, texnologiya, modernizatsiya, inson kapitali, barqarorlik.*

Iqtisodiyot har qanday jamiyat hayotining asosi, taraqqiyotning bosh omilidir. Sababi, iqtisodiy barqarorliksiz na siyosiy mustaqillik, na ijtimoiy farovonlikni ta‘minlash mumkin. Iqtisodiyot nafaqat moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste‘mol qilish jarayonlarini boshqaradi, balki ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va milliy xavfsizlik kabi sohalarning rivojlanishiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham har bir davlatning kuch-qudrati, avvalo, uning iqtisodiy salohiyati bilan belgilanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bosqichma-bosqich va izchil yondashuvni tanladi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, mulkchilikning turli shakllarini joriy etish, investitsiyalarni jalb etish va kichik biznesni rivojlantirish kabi islohotlar mamlakat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishiga aylandi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar va sanoatni modernizatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirdi [1].

Shu bois iqtisodiyotni rivojlantirish faqat iqtisodiy maqsad emas, balki jamiyatning har bir qatlamining farovonligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va milliy mustaqillikni mustahkamlashning kafolatidir. Taraqqiyotning asosi bo‘lgan iqtisodiyotning barqarorligi – har bir mamlakatning kelajakka ishonch bilan qadam qo‘yishidir.

Bu borada, eng avvalo, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash” asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilgan [2]. Unga ko‘ra, sohada quyidagi maqsadlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

➤ iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish;

➤ milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish;

➤ iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish;

➤ raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish;

➤ iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga yetkazish.

Shu ma‘noda, iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan har bir farmon va qaror jamiyat farovonligi, milliy manfaatlar va kelajak avlodlar istiqboliga qaratilgan muhim qadamlardir. Chunki iqtisodiyot taraqqiyotning asosi, xalqning turmush darajasi va davlat mustaqilligining kafolatidir. Iqtisodiy barqarorlik bo‘lgan joyda ishonch, imkoniyat va yuksalish hukm suradi.

Iqtisodiyot insoniyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi asosiy tizimdir. U nafaqat moddiy boyliklarni yaratish, balki inson hayotining barcha jabhalarini – ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi. Aslida, iqtisodiyotning mohiyati cheklangan resurslardan oqilona foydalanish, ularni jamiyat ehtiyojlarini qondirish yo‘lida samarali boshqarishdan iboratdir [3]. Iqtisodiyotning asosiy funksiyalari – ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol jarayonlari – bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular jamiyat hayotining uzluksiz aylanishini ta‘minlaydi. Ishlab chiqarish jarayonida tovar va xizmatlar yaratiladi, taqsimlash bosqichida esa bu boyliklar adolatli tarzda jamiyat a‘zolari o‘rtasida bo‘linadi. Ayirboshlash bozor mexanizmlari orqali amalga oshadi va iqtisodiy aloqalarning kengayishiga zamin yaratadi. Nihoyat, iste‘mol jarayoni esa insonning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirib, ishlab chiqarishning yangi bosqichiga turtki beradi [4].

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotning har bir bo‘g‘ini mamlakat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. U samarali ishlaganda jamiyatda farovonlik, barqarorlik va ishonch hukm suradi. Shu sababli, iqtisodiyot – bu nafaqat raqamlar va moliyaviy ko‘rsatkichlar tizimi, balki jamiyatning hayotiy energiyasi, taraqqiyotning bosh omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ne‘matov, X. “Iqtisodiyot: taraqqiyotning asosiy omili”. Yosh Olimlar, vol. 2, no. 33, 25 Nov. 2024, pp. 26–27.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/-3107036>

3. Dildora, Baxtiyorova. “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda iqtisodiyotni erkinlashtirishning o‘rni”. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 5.01 (2025): 80-84.

4. Shaxzoda, Maksudova. “Milliy iqtisodiyot barqarorlikni ta’minlashga iqtisodiyotni erkinlashtirish”. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.11 (2024): 173-178.

